



MEDICAL ETHICS AND PHILOSOPHICAL APPROACHES IN MEDICAL DECISION-MAKING

Vazira Haqberdiyeva

Faculty of General Medicine

5th year student

Samarkand State Medical University

Laylo Rakhmatullayevna Usmonova

Associate Professor, PhD

Department of Social and Humanitarian Sciences

Samarkand State Medical University

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: medical ethics, philosophical approach, decision-making, deontology, utilitarianism, patient rights.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article analyzes the role and importance of medical ethics and philosophical approaches in the process of making medical decisions. Philosophical approaches - especially deontological, utilitarian, and existential approaches - serve as an important methodological basis for ensuring informed decision-making in complex ethical situations between doctors and patients.

TIBBIY ETIKA VA TIBBIY QARORLAR QABUL QILISHDA FALSAFIY YONDASHUVLAR

Vazira Haqberdiyeva

Davolash ishi fakulteti

5-kurs talabasi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Laylo Rakhmatullayevna Usmonova

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O`zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: tibbiy etika, falsafiy yondashuv, qaror qabul qilish, deontologiya, utilitarizm, bemor huquqlari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiy etika va tibbiy qarorlar qabul qilish jarayonida falsafiy yondashuvlarning o`rnini va ahamiyati tahlil qilinadi. Falsafiy yondashuvlar —

ayniqsa, deontologik, utilitar va eksistensial yondashuvlar — shifokorlar va bemorlar o‘rtasidagi murakkab axloqiy vaziyatlarda asosli qarorlar qabul qilishni ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

МЕДИЦИНСКАЯ ЭТИКА И ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРИНЯТИИ МЕДИЦИНСКИХ РЕШЕНИЙ

Вазира Хакбердиева

Факультет лечебного дела

5 курс студент

Самаркандский государственный медицинский университет

Лайло Рахматуллаевна Усмонова

доцент кафедры социальных и гуманитарных наук, PhD,

Самаркандский государственный медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медицинская этика, философский подход, принятие решения, деонтология, утилитаризм, права пациента.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение медицинской этики и философских подходов в процессе принятия медицинских решений. Философские подходы - особенно деонтологический, утилитарный и экзистенциальный подходы - служат важной методологической основой для обеспечения принятия обоснованных решений в сложных этических ситуациях между врачами и пациентами.

Kirish. Tibbiy qarorlar qabul qilish bugungi kunda faqat klinik dalillarga emas, balki chuqur axloqiy va falsafiy asoslarga ham tayanmoqda. Shifokor bemor hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim qarorlarni qabul qiladi. Bu jarayonda axloqiy mezonlar, kasbiy burch, inson qadri, huquqlar va mas’uliyat kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shifokorlar va tibbiyot xodimlari nafaqat kasallikni aniqlash va davolash, balki bemorning huquqlari, erkinligi, axloqiy qadriyatlari va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi murakkab muvozanatni ham hisobga olgan holda qaror qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Shu jihatdan tibbiy etika – tibbiyot amaliyotida axloqiy mezonlar asosida yo‘l tutishni belgilovchi muhim yo‘nalish hisoblanadi.

Tibbiy qarorlar qabul qilish jarayonida falsafiy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular faqat texnik yoki huquqiy jihatdan emas, balki insoniylik,adolat, do‘stlik, hayot va o‘lim kabi fundamental tushunchalarga asoslanadi. Utilitarizm, deontologiya, ekzistensializm, erkinlik va mas’uliyatga oid qarashlar tibbiy qarorlarni qabul qilishda yo‘nalish beruvchi asosiy falsafiy

oqimlar sifatida ko‘riladi. Ushbu maqolada tibbiy etika va qaror qabul qilish amaliyotiga falsafiy yondashuvlarning qanday ta’sir ko‘rsatishi, ular qanday holatlarda qo‘llanilishi va real klinik misollar orqali bu yondashuvlarning afzalliklari hamda cheklovleri tahlil qilinadi.

Falsafiy yondashuvlar — ayniqsa, etik nazariyalar (deontologiya, utilitarizm, adolat prinsipi va hokazo) — tibbiy amaliyotda murakkab axloqiy muammolarni anglash va hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolaning maqsadi tibbiy etika va qaror qabul qilishda qo‘llaniladigan asosiy falsafiy yondashuvlarni o‘rganish, ularning amaliyotdagi samaradorligini baholash va muhim xulosalar chiqarishdir.

Metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Falsafiy-tahliliy metod

Etika nazariyaları — deontologiya, utilitarizm, adolat nazariyasi, eksistensial yondashuvlar — mazmunan tahlil qilinib, ularning tibbiy qarorlar kontekstida qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganildi. Har bir yondashuv asosida yotgan axloqiy prinsipler muhokama qilindi.

Komparativ (taqqosloviy) metod

Turli falsafiy etik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar tibbiy amaliyotdagi misollar asosida solishtirib tahlil qilindi. Xususan, hayot va o‘lim, evtanaziya, reanimatsiya, organi ajratish kabi murakkab klinik holatlardagi yondashuvlar qiyosiy o‘rganildi.

Empirik tahlil

Amaliyotdagi real tibbiy holatlar, bioetika komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqilgan ishlar, shifokorlar va bemorlar ishtirokidagi axloqiy muammolar asosida misollar yig‘ildi. Bu holatlar orqali falsafiy yondashuvlarning real hayotdagi qo‘llanishi baholandi.

Adabiyotlar sharhi va hujjatlari manbalar tahlili

Tibbiy etika va tibbiy qarorlar qabul qilishda falsafiy yondashuvlarni tushunish uchun keng qamrovli adabiyotlar va hujjatlari manbalar tahlil qilindi. Bu sohadagi nazariy asoslar qadimiy falsafiy qarashlardan boshlab, zamonaviy bioetika konsepsiylariga bo‘lgan ilmiy evolyutsiyani aks ettiradi.

Falsafiy asoslardan biri — Immanuil Kantning deontologik etikasi bo‘lib, u inson shaxsini maqsad sifatida ko‘rishni, uni hech qachon vosita sifatida ishlatmaslikni ta’kidlaydi. Bu tamoyil zamonaviy tibbiy amaliyotda bemorning roziligidagi, inson sha’niga va axloqiy javobgarlikka urg‘u beradi. Shu bilan birga, utilitarizm (Jeremy Bentham, John Stuart Mill) yo‘nalishi tibbiy qarorlarda ko‘pchilik manfaatini ko‘zlash zarurligini asoslaydi, masalan, pandemiyalar paytida resurslarni taqsimlashda keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy bioetikaning poydevori bo‘lgan Beauchamp va Childress tomonidan taklif etilgan to‘rt tamoyil modeli (avtonomiya, zarar yetkazmaslik, foyda keltirish, adolat) ko‘plab ilmiy

maqolalarda asosiy etik mezon sifatida qo'llaniladi. Ular 1979-yilda chop etgan "Principles of Biomedical Ethics" asarida bu tamoyillarni tibbiy qarorlar kontekstida keng yoritganlar.

Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti (WHO), UNESCO va BMT tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro bioetika va sog'lijni saqlash hujjatlari, jumladan, Inson huquqlari va bioetika to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi (2005), bemor huquqlarini himoya qilish, tibbiy axloq va global sog'liq siyosati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliy kontekstdagi manbalarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuni, Tibbiy faoliyat etikasi kodeksi va SSVning ayrim buyruqlari tibbiy xodimlarning axloqiy javobgarligini belgilab beradi. Bu hujjatlar tibbiy yordam ko'rsatishda bemorning roziligi, maxfiylik, axloqiy mezonlar va adolat tamoyillariga tayangan holda qaror qabul qilishni talab qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, tibbiy qarorlar nafaqat ilmiy asoslangan bo'lishi, balki axloqiy, huquqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'un bo'lishi lozim. Bu esa har bir tibbiy holatda shifokor tomonidan chuqur mulohazani, empatiyani va etik me'yorlarga sodiqlikni talab etadi.

Natijalar

1. Tibbiy etika faqat "to'g'ri yoki noto'g'ri" qaror emas, balki ko'p qirrali, kontekstual tahlilni talab qiluvchi jarayon ekanligi tasdiqlandi.

2. Deontologik yondashuvlar (burch va qoidaga asoslangan qarorlar) ko'p hollarda bemorning huquqlarini himoya qilishda samarali bo'lsa, utilitar yondashuv (ko'pchilik uchun eng katta foydani ko'zlash) tibbiy resurslarni taqsimlashda ustunlik qiladi.

3. Eksistensial yondashuv, shaxsiy tanlov va mas'uliyatni e'tiborga olib, bemorning subyektiv holatiga chuqur e'tibor qaratishga undaydi.

4. Shifokorlarning aksariyati turli etik yondashuvlarni real vaziyatlarda kombinatsiyalab qo'llashga ehtiyoj sezmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiy etika va tibbiy qarorlar qabul qilish jarayonida falsafiy yondashuvlarning roli juda muhimdir. Falsafiy tamoyillar shifokorlar va tibbiyot xodimlariga murakkab axloqiy muammolarni hal qilishda yo'nalish beradi, bemor huquqlari va axloqiy javobgarlikni mustahkamlaydi.

Tahlil qilingan manbalar va klinik holatlar asosida, deontologik yondashuv bemorning sha'nini hurmat qilish, uning roziligini olish va individual erkinligini ta'minlashda asosiy tamoyil sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, utilitaristik tamoyillar ko'p hollarda resurslarni taqsimlash va jamiyat manfaatlarini inobatga olishda qo'llanilishi aniqlandi.

Beauchamp va Childressning to'rt tamoyil modeli tibbiy qarorlar qabul qilishda eng keng tarqalgan va samarali yondashuv ekanligi isbotlandi. Bu tamoyillar yordamida tibbiyot xodimlari murakkab axloqiy vaziyatlarda balansli va adolatli qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, huquqiy me'yorlar va xalqaro deklaratsiyalar tibbiy etika standartlarini belgilab, shifokor va bemor o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi. Biroq, har bir milliy madaniyat va an'analar tibbiy qarorlarning qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi, bu esa falsafiy yondashuvlarni mahalliy kontekstda moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy etika va qarorlar qabul qilishda falsafiy yondashuvlar nafaqat nazariy asos, balki klinik amaliyotda real va amaliy vosita sifatida xizmat qiladi.

Mulohaza

Tibbiy qarorlar qabul qilishda hech bir etik yondashuv yetarli darajada yagona echimni taqdim eta olmaydi. Har bir falsafiy yondashuvning afzallik va cheklovleri mavjud. Shu sababli, amaliy tibbiyotda moslashuvchan va kontekstual qarorlar muhim ahamiyatga ega. Falsafiy asoslangan etik fikrlash — bu shifokorning o'z harakatlarini ongli va mas'uliyatli tarzda baholashi uchun zarur vosita hisoblanadi.

Shuningdek, bemorlarning madaniy, diniy va shaxsiy qadriyatları e'tiborga olinmagan hollarda, eng yaxshi qaror ham bahsli bo'lishi mumkin. Shuning uchun tibbiy etika doimiy muloqot, empatiya va axloqiy refleksiya talab etadi.

Falsafiy yondashuvlar, ayniqsa deontologik va utilitar fikrlash uslublari, turli holatlarda turlicha ustuvorlik kasb etadi. Masalan, deontologik etikada bemor huquqlarining daxlsizligi asosiy mezon bo'lsa, utilitarizmda umumiy foyda va oqibat muhim sanaladi. Biroq har ikkala yondashuv ham bir tomonlama qarash bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli, kompleks va kontekstual yondashuv — aynan muayyan holatga moslashtirilgan qarorlar — eng maqbul strategiya sifatida qaraladi.

Shuningdek, axloqiy qarorlar shifokorning shaxsiy qadriyatları, tajribasi, ijtimoiy bosim va bemorning o'z ehtiyojlari bilan o'zaro murakkab aloqada shakllanadi. Falsafiy antropologiyaning ta'kidlashicha, inson — bu faqat biologik mavjudot emas, balki qadriyatlar egasi, axloqiy tanlovlardan qiluvchi subyektdir. Shu sababli, har qanday tibbiy qaror insoniylik, hurmat, empatiya va shaffoflik tamoyillariga asoslanmog'i lozim.

Amaliyotda esa, ko'p hollarda shifokorlar vaqt tanqisligi, huquqiy bosim yoki institutsional cheklovlar sababli chuqr axloqiy tahlil qilishga imkon topolmaydilar. Bu esa tibbiy xatoliklar yoki bemor bilan ishonchszilik muhitini keltirib chiqaradi. Shu boisdan, etika bo'yicha doimiy ta'lim, bioetika muhokamalari va kasbiy maslahat tizimlari zaruriyat darajasiga chiqqan.

Xulosa va tavsiyalar

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, tibbiy qarorlar qabul qilishda falsafiy yondashuvlar chuqr axloqiy asos va nazariy poydevor yaratadi. Deontologik yondashuvlar bemorning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynasa, utilitar yondashuvlar umumiy foydani ko'zlagan

tizimlar uchun samarali yechimlar taklif qiladi. Shu bilan birga, eksistensial va kontekstual yondashuvlar har bir bemorning shaxsiy ehtiyojlari va qadriyatlarini hisobga olishga chorlaydi.

Tibbiy etika — bu faqat qoidalar to‘plami emas, balki har bir klinik holatda o‘ziga xos qaror qabul qilishni talab qiluvchi dinamik jarayon. Falsafiy asoslangan etik fikrlash, empatiya va muloqot madaniyati zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimida ajralmas vosita hisoblanadi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, tibbiy qarorlar qabul qilish jarayonida falsafiy yondashuvlar chuqur metodologik asos yaratadi. Quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida falsafiy etika bo‘yicha chuqurroq bilim berish tizimini kengaytirish.

2. Tibbiy muassasalarda axloqiy muhokama (bioetika) komissiyalarining faoliyatini kuchaytirish.

3. Har bir klinik holatda bemorning shaxsiy qadriyatlariga mos yondashuvni qo‘llash, shaxsiyatga hurmatni ta’minlash.

4. Tibbiy protokollarni ishlab chiqishda etik muammolarni oldindan ko‘zlab baholash tizimini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Beauchamp, T. & Childress, J. (2019). Principles of Biomedical Ethics. Oxford University Press.
2. Gillon, R. (2003). Ethics needs principles – four can encompass the rest – and respect for autonomy should be “first among equals”. Journal of Medical Ethics, 29(5), 307–312.
3. Akhmedov, T. (2021). Tibbiy etika va falsafiy tafakkur. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
4. Zohidov, B. (2020). Tibbiyotda axloqiy muammolar. Falsafa va huquq jurnali, 4(2), 45–52.